



Xalq so'zi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

1991-yil 1-yanvardan chiqib boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: info@xs.uz • 2023-yil 16-sentabr, № 194 (8537)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



OROLNI QUTQARISH XALQARO JAMG'ARMASI DOIRASIDAGI HAMKORLIK ISTIQBOLLARI KO'RSATIB O'TILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan 14-15-sentabr kunlari amaliy tashrif bilan Dushanbe shahrida bo'ldi.



Davlatimiz rahbari tashrifning birinchi kuni Dushanbeda Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon bilan

uchrashdi hamda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi Maslahat uchrashuvi doirasidagi

tadbirlarda qatnashdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 15-sentabr kuni Orolni qutqarish

xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdi.

Tojikiston tomoni raisligida o'tgan tadbirida Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, shuningdek, Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisining birinchi o'rinbosari Adilbek Qasimaliyev va BMT Bosh kotibining maxsus vakili — Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markaz rahbari Xaxa Imnadze ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, Tojikistonning 2020-2023-yillarda Jamg'armaga raisligi yakunlari sarhisob qilindi, Orol dengizi havzasida ekologiya, suv xo'jaligi va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilashning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi hamda Jamg'arma doirasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh qarorgohida Tojikiston Respublikasi hamraisligida Global suv konferensiyasi muvaffaqiyatli o'tganini alohida qayd etdi. Ushbu tarixiy tadbir yakunlariga ko'ra Markaziy Osiyoning suv sohasidagi hayotiy muhim masalalari va muammolariga butun xalqaro hamjamiyat e'tiborini jalb etishga erishildi.

Davlatimiz rahbari tuzilma tashkil

etilganidan buyon o'tgan 30 yilda Orol dengizi havzasida ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashish masalalarini hal etish, qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirish bo'yicha o'zaro muvofiqlashgan yondashuvlarni ishlab chiqishda Jamg'armaning o'rni va ahamiyatini tahlil qildi.

— Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi — bu, avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlarining global miqyosdagi eng o'tkir muammolardan birini yechish bo'yicha ko'p tomonlama hamkorlik borasidagi noyob tajribasidir, — dedi Prezidentimiz.

Global iqlim o'zgarishlari oqibatida vujudga kelayotgan yangi xavf va tahdidlar sharoitida bunday mintaqaviy hamkorlikning o'rni va ahamiyati yanada ortib borayotgani ta'kidlandi. Markaziy Osiyoda suv taqchilligi muammosi o'tkir va muqarrar tus oldi hamda bundan buyon u tobora chuqurlashib boraveradi.

O'zbekiston yetakchisi ko'p tomonlama sheriklik samaradorligini huquqiy va institutsional jihatdan ta'minlash bo'yicha muhim vazifalar turganini qayd etib, suv-ekologiya sohasidagi hamkorlikka oid qator amaliy takliflarni ilgari surdi.

Jamg'armaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va institutsional mexanizmlarini modernizatsiya qilish doirasida asosiy hujjat va bitimlarni xatlovdan o'tkazish va qayta ko'rib chiqish, amaldagi tuzilmalarni tahlil

qilish va Jamg'arma tarkibidagi tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va samarasini oshirish borasida takliflar tayyorlash, uning faoliyati va hamkorlik masalalarini aniq tartibga soluvchi "Qoida va tartib-taomillar"ni ishlab chiqish taklif qilindi.

— Jamg'armani rivojlantirish va isloh etish jarayonlarini tarmoqlararo tamoyil asosida, ya'ni zamonaviy ekologik tahdidlarni hisobga olgan holda "suv — energetika — oziq-ovqat" tartibidagi kompleks yondashuvlar negizida amalga oshirish muhimdir, — alohida ta'kidladi davlatimiz rahbari.

Asosan milliy rejalar yo'nalishida amalga oshirilayotgan Orol dengizi havzasi mamlakatlariga yordam ko'rsatish bo'yicha to'rtinchi Dasturning ijrosi tashvishga soladigan holatda ekanini bildirib, O'zbekiston Prezidenti Jamg'arma boshqaruviga amaldagi Dasturni tanqidiy qayta ko'rib chiqish topshirig'ini berish hamda har bir mintaqaviy loyihaning hajmini va moliyalashtirish manbalarini belgilagan holda, "yo'l xaritalari"ni, ularning ijrosi bo'yicha kelishilgan jadvalni tayyorlashni taklif etdi.

Ustavur mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun investitsiya, texnologiya va texnik ko'makni jalb etish masalalari bo'yicha tizimli hamkorlikni ham kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmatining surati.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OROLNIN QUTQARISH XALQARO JAMG'ARMASI TA'SISCHI DAVLATLARI RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Tojikiston Respublikasi Prezidenti hurmatli Emomali Sharipovich Rahmonga iliqlik qabul hamda uchrashuvimizni yuksak darajada tashkil etgani uchun bildirilgan minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Barcha hamkasblarimiz Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi tashkil etilganining 30 yilligi munosabati bilan chin dildan tabriklayman.

O'tgan davrda Jamg'arma ekologik tahdidlarga qarshi kurash masalalarida umumiy manfaatlarimizni ilgari surish uchun muhim maydon sifatida g'oyat zarurligini ko'rsatdi.

Ana shu vaqt mobaynida Orol dengizi havzasi bo'yicha kelishilgan yondashuvlar ishlab chiqildi, qo'shma qaror va dasturlar qabul qilindi va amalga oshirildi.

Tojikistonning tashkilotimizga raisligi davridagi samarali natijalarni alohida ta'kidlashni istardim. Xususan, Jamg'arma doirasida amaliy hamkorlikni rivojlantirish uchun katta ishlar bajarildi. Xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari bilan aloqalar kengaydi.

Shu yil mart oyida hurmatli Emomali Sharipovichning hamraisligida Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh qarorgohida tashkil etilgan Global suv konferensiyasi muvaffaqiyatli o'tganini ham alohida qayd etmoqchiman.

Ushbu tarixiy tadbir yakunlariga ko'ra Markaziy Osiyoning suv sohasidagi hayotiy muhim masalalari va muammolariga butun xalqaro hamjamiyat e'tiborini jalb etishga erishildi.

Hurmatli hamkasblar!

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi — bu, avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlarining global miqyosdagi eng o'tkir muammolardan birini yechish bo'yicha ko'p tomonlama hamkorlik borasidagi noyob tajribasidir.

Shu alohida qayd etmoqchiman, Jamg'arma suv va ekologiya sohasida mintaqaviy hamkorlikning eng muhim platformasiga aylandi.

Suv xo'jaligi bo'yicha Davlatlararo komissiya hamda "Amudaryo" va "Sirdaryo" havzasi tashkilotlari suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanishni tartibga solish masalalari yuzasidan kelishilgan bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirmoqda.

Ilmiy-axborot markazi barcha xalqaro sheriklar uchun ochiq bo'lgan, keng ko'lami ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan salmoqli tahliliy bazani shakllantirdi.

Davlatlararo komissiyaning barqaror rivojlanish bo'yicha faoliyati atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Jamg'arma bir qator

mintaqaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirmoqda, xalqaro institutlar va donor tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda.

Tuzilmaning o'rni va ahamiyati global iqlim o'zgarishlari oqibatida vujudga kelayotgan yangi xavf va tahdidlar sharoitida yanada ortib bormoqda.

Muzliklarning erishi, tabiiy ofatlar, shuningdek, shiddatli demografik o'sish, urbanizatsiya jarayonlari va sanoatlashuv natijasida yuzaga kelayotgan texnogen omillar tufayli mintaqada suv va ekologiya bilan bog'liq vaziyat yomonlashib borayotgani va uning oqibatlari alohida xavotir uyg'otmoqda.

Hamkasblarim yaxshi biladi, Markaziy Osiyoda suv taqchilligi muammosi o'tkir va muqarrar tus oldi hamda bundan buyon u tobora chuqurlashib boraveradi.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida 2040-yilga borib suv resurslariga bog'liq ehtiyoj uch barobar oshadi. Vaqt o'tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, hozirning o'zidayoq mintaqada davlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga 2 milliard dollargacha mablag' yo'qotmoqda.

Bularning barchasi Jamg'arma doirasida uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan kelishilgan yangi qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etmoqda.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari! Bugun bizning oldimizda ko'p tomonlama sheriklik samaradorligini huquqiy va institutsional jihatdan ta'minlash bo'yicha muhim vazifalar turibdi.

Shu munosabat bilan sammitning kun tartibiga mos holda quyidagi takliflarimizni bildirishni istardim.

Birinchi. O'zbekiston Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va institutsional mexanizmlarini modernizatsiya qilish tarafdoridir.

Xususan, biz asosiy hujjatlar va bitimlarni xatlovdan o'tkazish, jumladan, 1990-yillarda qabul qilingan Jamg'arma nizomini qayta ko'rib chiqish, amaldagi tuzilma faoliyatini birgalikda tahlil qilish va Jamg'arma tarkibidagi tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va samarasini oshirish borasida takliflar tayyorlash, uning faoliyati va hamkorlik masalalarini aniq tartibga soluvchi "Qoida va tartib-taomillar"ni ishlab chiqishni taklif etamiz.

Jamg'armani rivojlantirish va isloh etish jarayonlarini tarmoqlararo tamoyil asosida, ya'ni zamonaviy ekologik tahdidlarni hisobga olgan holda, "suv — energetika — oziq-ovqat" tartibidagi kompleks yondashuvlar negizida amalga oshirish muhimdir.

Bundan tashqari, tuzilmaning asosiy hujjatlarida transchegaraviy daryolar suv resurslarini boshqarish va foydalanish sohasida umume'tirof etilgan me'yorlar, prinsiplar va o'zaro majburiyatlar o'z ifodasini topishi lozim.

Biz, shuningdek, Jamg'armaning amaldagi tuzilmalari samarasini kadrlar va texnik salohiyatini kuchaytirish, kompetensiyani kengaytirish hisobidan tubdan oshirish tarafdorimiz.

Ikkinchi. Bugungi uchrashuvimiz arafasida biz Jamg'arma doirasidagi loyihalar bo'yicha o'tgan 30 yil davomida olib borilgan faoliyat natijalarini tahlil qildik.

Asosiy dasturiy hujjatlarimizdagi qoidalarda va loyihalarni bajarish borasidagi aniq oldinga siljishni ko'rsatadigan natijalarimizda farqlar borligi o'z-o'zidan ravshan, albatta.

Orol dengizi havzasi mamlakatlariga yordam ko'rsatish bo'yicha to'rtinchi Dasturning ijrosi bilan bog'liq holat ham bizning barcha mamlakatlarimizni tashvishga solishi kerak, deb o'ylayman.

Bu boradagi ishlar, asosan, milliy rejalari yo'nalishida amalga oshirilmoqda.

Shu munosabat bilan Jamg'arma boshqaruviga amaldagi Dasturni tanqidiy qayta ko'rib chiqish topshirig'ini berishni taklif etaman. Bunda har bir mintaqaviy loyihaning hajmini va moliyalashtirish manbalarini belgilagan holda "yo'l xaritalari"ni, shuningdek, ularning ijrosi bo'yicha kelishilgan jadvalni tayyorlashni nazarda tutish lozim.

Uchinchi. Ustavur mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun investitsiya, texnologiya va texnik ko'makni jalb etish masalalari bo'yicha tizimli hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Shu munosabat bilan ba'zi takliflarni ilgari surmoqchiman.

Birinchidan, mamlakatlarimizning har biri aniq maqsadli ko'rsatkichlarni belgilagan holda mintaqaviy loyihalarga chetdan ko'makni jalb etish bo'yicha o'ziga majburiyat olishi lozim.

Raislik qiluvchi tomonning muvofiqlashtirish asosida investitsiyalarni va texnik ko'makni jalb qilish va taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Ikkinchidan, xorijiy sheriklar, yetakchi xalqaro institutlar va donor tashkilotlarni jalb etgan holda qo'shma loyihalarni amalga oshirishni tezlashtirish maqsadida maxsus mintaqaviy konferensiya o'tkazishni taklif etamiz.

To'rtinchi. Jamg'armaning ishchi organlariga xalqaro konsultantlar ishtirokida Amudaryo va Sirdaryo havzalarini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan rejalari ishlab chiqish topshirig'ini bersak, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ushbu daryolar havzalarida vaziyatning rivojlanishi bo'yicha turli ssenariylarni modellashtirishni nazarda tutish muhimdir.

Bunday strategik hujjatlarining qabul qilinishi mintaqamizda suv-energetika resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish siyosatini muvofiqlashtirishga imkon beradi, deb ishonaman.

Beshinchi. Suv va boshqa tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish madaniyatini shakllantirish, maxsus dasturni qabul qilgan holda yoshlar tashabbuslari va startaplarini qo'llab-quvvatlash masalalarida yoshlar bilan ishlashni mintaqaviy darajada tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ushbu masalalarni ko'rib chiqishda Preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markaz faol jalb etilishiga aminmiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Ekotizimlar tanazzuli yanada kuchayishining oldini olishda, eng avvalo, Orol dengizi hududidagi hamkorlik masalalariga alohida to'xtalib o'tmoqchiman.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda Orolbo'yidagi ekologik va ijtimoiy vaziyatni yaxshilash bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilayotganini qayd etmoqchiman.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi rezolyutsiyasi asosida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirish bo'yicha Harakatlar rejasini va Chora-tadbirlar dasturini amalga oshirilmog'da.

So'nggi bir necha yil davomida Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million gektar o'rmonzorlar yaratildi. Yaqin ikki yilda yana 400 ming gektar yashil hududlar barpo etish rejalashtirilmoqda.

Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, shuningdek, Orolbo'yida bioxilmaxillikni saqlash uchun 3,5 million gektardan ortiq maydonda tabiat parklari, qo'riqxonalar va davlat himoya hududlari yaratildi.

Bugungi kunda Orolbo'yi mintaqasida qo'riqlanadigan hududlarning umumiy maydoni 4,6 million gektarni tashkil qilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekistonda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha katta miqyosdagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Oxirgi 7 yil mobaynida mamlakatimizda

sug'oriladigan yerlarning to'rtidan bir qismini tashkil etadigan 1 million gektardan ortiq maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida biz suvni tejash bo'yicha Milliy dasturni ishlab chiqish niyatidamiz.

Biz suvni tejash sohasini Jamg'arma faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab, bu borada hamkorligimizni kuchaytirishimiz mumkin.

Kelgusi yili Samarqandda o'tkazilishi rejalashtirilayotgan Xalqaro iqlim forumi doirasida jahonning yetakchi kompaniyalarining suvni tejash borasidagi texnologiyalari ko'rgazmasini tashkil etmoqchimiz.

Ana shu masalalarning barchasini kompleks ko'rib chiqish maqsadida mamlakatlarimiz suv resurslari, energetika, ekologiya va iqtisodiyot vazirlarining doimiy uchrashuvlari bo'yicha Mintaqaviy platformani ta'sis etishni taklif qilamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

"Qo'shtepa" kanali qurilishi bo'yicha ham o'z fikrimni bildirib o'tmoqchiman.

Mohiyat-e'tiboriga ko'ra, mintaqamizda suvdan foydalanish jarayonida binaq mamlakatlarimiz bilan hech qanday majburiyat asosida bog'lanmagan yangi ishtirokchi paydo bo'ldi.

Afg'on tomoni qurilishi bo'yicha faol ish olib borayotganini yaxshi bilasiz.

Uning ishga tushirilishi Markaziy Osiyodagi suvdan foydalanish tartibi va muvozanatini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin.

"Qo'shtepa" kanalining qurilishi va uning Amudaryo suvidan foydalanish tartibiga ta'siri bilan bog'liq barcha jihatlarni mamlakatlarimizdagi tadqiqot institutlarini jalb etgan holda o'rganish bo'yicha Qo'shma ishchi guruhini shakllantirish zarur, deb hisoblaymiz.

Afg'oniston vakillarini suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo'yicha mintaqaviy muloqotga jalb etish masalasi ko'rib chiqishni taklif etamiz.

Hurmatli hamkasblar!

So'zimizning yakunida Qozog'iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevni Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi raisligini qabul qilayotgani munosabati bilan tabriklayman.

Ishonchim komilki, bugungi sammitimizda ilgari surilayotgan tashabbuslar va qabul qilinayotgan hujjatlarining amalga oshirilishi Jamg'arma doirasida xalqlarimiz farovonligi va butun Markaziy Osiyo mintaqasining gullab-yashnashi yo'lida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat.

OROLNI QUTQARISH XALQARO JAMG'ARMA SI DOIRASIDAGI HAMKORLIK ISTIQBOLLARI KO'RSATIB O'TILDI

Shu munosabat bilan mamlakatlarimizning har biri aniq maqsadli ko'rsatkichlarni belgilagan holda mintaqaviy loyihalarga chetdan ko'makni jalb etish bo'yicha o'ziga majburiyat olishi hamda raislik qiluvchi tomonning muvofiqlashtirishi asosida investitsiyalarni va texnik ko'makni jalb qilish va taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqish taklifi bildirildi.

Bundan tashqari, xorijiy sheriklar, yetakchi xalqaro institutlar va donor tashkilotlarni jalb etgan holda, qo'shma loyihalarni amalga oshirishni tezlashtirish maqsadida maxsus mintaqaviy konferensiyaga o'tkazish taklif etildi.

O'zbekiston rahbari mintaqamizda suv-energetika resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish siyosatini muvofiqlashtirish maqsadida xalqaro konsultantlar ishtirokida Amudaryo va Sirdaryo havzalarini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga

mo'ljallangan rejalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq ekanini ta'kidledi.

— Suv va boshqa tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish madaniyatini shakllantirish, maxsus dasturni qabul qilgan holda yoshlar tashabbuslari va startaplarini qo'llab-quvvatlash masalalarida yoshlar bilan ishlashni mintaqaviy darajada tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu masalalarni ko'rib chiqishda Preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markaz faol jalb etilishiga aminmiz, — dedi davlatimiz rahbari.

Ekotizimlar tanazzuli yanada kuchayishini oldini olishda, eng avvalo, Orol dengizi hududidagi hamkorlik masalalariga alohida to'xtalib, Prezidentimiz hozirgi vaqtda O'zbekistonda Orolbo'yidagi ekologik va ijtimoiy vaziyatni yaxshilash bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilayotganini qayd etdi.

— So'nggi bir necha yil davomida Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million gektar o'rmonzorlar yaratildi. Yaqin ikki yilda yana 400 ming gektar yashil hududlar barpo etish rejalashtirilmogda. Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, shuningdek, Orolbo'yida bioxilma-xillikni saqlash uchun 3,5 million gektardan ortiq maydonda tabiat parklari, qo'riqxonalar va davlat himoya hududlari yaratildi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bundan tashqari, O'zbekistonda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha katta miqdordagi chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Oxirgi 7 yil mobaynida mamlakatimizda sug'oriladigan yerlarning o'rtadan bir qismini tashkil etadigan 1 million gektardan ortiq maydonlarda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi.

Hamkorlariga suvni tejash sohasini Jang'arma faoliyatining ustuvor

yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab, bu borada hamkorlikni kuchaytirish taklif etildi. Shu masalalarning barchasini kompleks ko'rib chiqish maqsadida suv resurslari, energetika, ekologiya va iqtisodiyot vazirlarining doimiy uchrashuvlari bo'yicha Mintaqaviy platformani ta'sis etish tashabbusi ilgari surildi.

O'zbekiston Prezidenti "Qo'shstepa" kanali qurilishi bo'yicha ham o'z fikrini bildirdi. Ta'kidlanganidek, mintaqamizda suvdan foydalanish jarayonida yangi ishtirokchi paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan kanal qurilishi va uning Amudaryo suvidan foydalanish tartibiga ta'siri bilan bog'liq barcha jihatlarini mamlakatlarimizdagi tadqiqot institutlarini jalb etgan holda o'rganish bo'yicha Qo'shma ishchi guruhini shakllantirish, shuningdek, Afg'oniston vakillarini suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo'yicha mintaqaviy

muloqotga jalb etish masalasini ko'rib chiqish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari so'zining yakunida bugungi sammitda ilgari surilayotgan tashabbuslar va qabul qilinayotgan hujjatlar amalga oshirilishi, Jang'arma doirasida xalqlarimiz farovonligi va butun Markaziy Osiyo mintaqasining gullab-yashnashi yo'lida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish va samaradorligini oshirishga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Yig'ilishda Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston rahbarlari va Qirg'iziston hukumati a'zosi ham so'zga chiqdi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining murojaati o'qib eshittirildi.

Tadbir yakunida Jang'arma ta'sischi davlatlari quyidagi hujjatlarni imzoladilar: — Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlarining Dushanbe bayonoti; — Orolni qutqarish xalqaro

jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining Tojikiston Respublikasining OQXJdagi raisligi yakunlari to'g'risida qarori; — Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 2024 — 2026-yillarga OQXJ prezidenti etib saylangani to'g'risidagi qarori; — Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining OQXJ tashkiliy tuzilmasi va shartnoma-huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha faoliyati to'g'risidagi qarori.

2024 — 2026-yillarda OQXJga raislik Qozog'iston Respublikasiga o'tdi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

O'z.A.

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARINING O'ZARO HAMJIHATLIGI DUNYONING TURLI MINTAQALARIDAGI KO'PLAB DAVLATLARGA O'RNAK BO'LMOQDA

14 va 15-sentabr kunlari Dushanbeda mintaqamiz taqdiri uchun ikkita muhim sammit — Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi Maslahat uchrashuvi va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlarining yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Davlatlar rahbarlari mintaqaviy va global kun tartibining dolzarb masalalari bo'yicha fikr almashdi hamda Markaziy

Osiyoning dolzarb muammolarini hal etishga bo'lgan yondashuvlar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari ushbu sammitlarda siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalaridagi muammolarga qarshi kurashish bo'yicha konsolidatsiyalangan harakatlar haqidagi fikr-mulohazalarini taqdim etdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari katta qiziqish va e'tibor bilan kutib olindi, shuningdek, xalqaro ekspert-tahlil hamjamiyati vakillari o'rtasida o'zining katta aks sadosini berdi.

Li Ji O'N, Chet tillar universitetining Markaziy Osiyo tadqiqotlari kafedrasini mudiri, professor (Janubiy Koreya): — Prezident Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi Maslahat uchrashuvidagi nutqi bilan tanishar ekanman, O'zbekiston, haqiqatan ham, mintaqaviy yetakchi mamlakat va nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun Yevrosiyo qit'asida

E'tirof

Ali RASTBIN, Parij Geosiyosat akademiyasi prezidenti (Fransiya): — Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlarining Dushanbedagi navbatdagi uchrashuvi mintaqaviy davlatlarning ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishda sa'y-harakatlarini birlashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ushbu uchrashuv mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash hamda xavfsizlik sohasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlashda davlatlararo hamkorlikning qator ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan.



O'zbekiston ishtiroki mamlakatning ochiq, tizimli va samarali muloqotga sodiqligini ko'rsatadi. O'zbekiston Prezidentining favqulodda vaziyatlarni prognozlash, oldini olish, barvaqt ogohlantirish va birgalikda javob qaytarishning mintaqaviy tizimini shakllantirish bo'yicha tashabbusi bugungi kunda dolzarbdir.

O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida o'zaro bog'langan transport yo'laklarini shakllantirish zarurligini ham ta'kidledi. Darhaqiqat, bu Markaziy Osiyoning transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish maqsadida mamlakatlarining sa'y-harakatlarini birlashtirishga xizmat qiladi.

Mintqa mamlakatlari o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratildi, bu jabhada muvaffaqiyatli sheriklikni ta'minlash uchun zarurdir. Yirik sanoat loyihalarining amalga oshirilishi mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Iqlim o'zgarishlari va bundan kelib chiqadigan xavf-xatarlar hozirgi paytda kun tartibidagi dolzarb masalalarga aylangan. Shu munosabat bilan O'zbekiston rahbari tomonidan kelgusi yil bahor faslida Samarqandda Markaziy Osiyodagi iqlim o'zgarishlariga bag'ishlangan xalqaro forumni o'tkazish tashabbusi ilgari surilgani bu borada o'zaro hamkorlikda samarali chora-tadbirlarni ko'rishga xizmat qiladi.

Alvis EGLITIS, "LETA" axborot agentligi xalqaro yangiliklar muharriri (Latviya): — O'zbekiston Prezidentining Dushanbe shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvidagi nutqi va ilgari surilgan tashabbuslar Toshkentning mintaqada ishonch, yaxshi qo'shnihilik va sheriklik munosabatlarini mustahkamlash, amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishga intilishidan dalolat beradi.

Prezident Shavkat



Mirziyoyevning sa'y-harakatlari bilan bugungi kunda mintaqaviy iqtisodiy o'sish va sarmoyaviy faollik markaziga aylanmoqda.

O'zbekiston rahbarining istisnosiz va cheklovsiz to'laqonli erkin savdo zonalarini tezroq shakllantirish

lozirligi, mintaqada barqaror savdo va logistika zanjirlarini shakllantirishni nazarda tutuvchi Mintaqaviy dasturni qabul qilish, chegara savdosi va kooperatsiya markazlarini ochish hamda kengaytirish, qonunchilikni uyg'unlashtirish va o'zaro savdoda to'siqlarni bartaraf qilish, bojxona ma'muriyati, sanitariya va fitosanitariya nazorati uchun yagona elektron platformalarni yaratish bo'yicha ilgari surgan tashabbuslari usuzoqni ko'ra oladigan, strategik xususiyatga ega mazmun-mohiyat kasb etgani holda mintaqaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga ko'maklashadi.

Muhammad VADI', Xalqaro ekspert, "Sada El Balad" axborot agentligining bosh muharriri (Misr): — Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi, shuningdek, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlarining yig'ilishi mintaqaviy sheriklikni kengaytirish va ilgari erishilgan kelishuvlarni amaliy jihatdan hayotga tatbiq etish masalalarini muhokama qilish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Maslahat uchrashuvidagi nutqida ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda Markaziy Osiyoda barqarorlik va birlik mustahkamlanmoqda. Mintaqaviy iqtisodiy o'sish va investitsiya faolligining muhim markazlaridan biriga aylanmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari dunyoning turli mintaqalaridagi ko'plab davlatlarga o'mak bo'ladigan ko'plab dolzarb sohalarida muvaffaqiyatli hamkorlik qilmoqda.

O'ylaymanki, dunyoda geosiyosiy raqobat va qarama-qarshiliklarning kuchayishi, energetika va oziq-ovqat xavfsizligi muammolarining keskinlashuvi sharoitida yaxshi qo'shnihilik va o'zaro ko'mak asosidagi hamkorlikni qo'llab-quvvatlash har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega.



o'rin tutadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi juda katta mintaqaviy qiziqish uyg'otdi. O'zbekiston yetakchisining Markaziy Osiyodagi hamkorlikning yangi mazmuniga urg'u berishi davlat rahbarlarining Dushanbedagi uchrashuvining asosiy hujjatlaridan biri bo'ldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari

Lyu SYUI, Xalq universiteti huzuridagi Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti direktorining o'rinbosari (Xitoy): — Prezident Shavkat Mirziyoyevning Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari sammitidagi nutqini katta qiziqish bilan o'rgandim. O'zbekiston rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbus va takliflar mintaqaviy davlatlari munosabatlari faol, tizimli va serqirra tus olgan yangi davr boshlanayotganidan yaqqol dalolat beradi.

Bularning barchasi Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ijobiy ta'sir ko'rsatgani holda mintaqada xavfsizlik, umumiy taraqqiyot va farovonlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Erishilgan aniq-ravshan muvaffaqiyatlar ishonch bilan shunday fikrni bildirishga asos bo'la oladi. Masalan, so'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarining yalpi ichki mahsuloti 40 foizga



o'sdi. O'zaro investitsiyalar hajmi qariyb 6 baravar oshdi, mintaqaviy ichidagi sayyohlik ko'rsatkichlari ikki barobar ko'paydi. Mintaqaviy mamlakatlari o'rtasidagi savdo-sotiqning barqaror o'sishi ta'minlanmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston rahbari o'z nutqida Markaziy Osiyo so'nggi paytlarda duch kelayotgan muammolarni tahlil qilishga alohida e'tibor qaratgani barobarida mazkur xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashish yo'llari haqidagi o'z fikrlarini ham o'rtoqlashdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning mintaqaviy xalqlarining xavfsizligi, taraqqiyoti va farovonligini oshirish manfaatlarini yo'lida

xavfsizlik va barqarorlikning kafolati ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim.

Bugungi kunda dunyoda hukm surayotgan o'ta og'ir vaziyatda va Afg'onistondan kelib chiqayotgan turli tahdidlar sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlik va barqarorlik masalalariga ko'proq e'tibor qaratishi talab etilmoqda.

O'zbekiston Prezidentining kelgusi yilning bahorida Samarqandda Markaziy Osiyodagi iqlim o'zgarishlariga bag'ishlangan xalqaro forumni o'tkazish tashabbusi dolzarb ahamiyatga ega. Bugungi kunda Samarqand yuqori darajadagi qator muhim xalqaro tadbirlarning markaziga aylanib bormoqda.

sa'y-harakatlarni birlashtirishga chaqirgani shu nuqtai nazardan asosiy jihat bo'ldi. Ayni chog'da savdo, investitsiya, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport, madaniy-gumanitar, xavfsizlik kabi sohalaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari alohida e'tirofga sazovordir.

Albatta, O'zbekiston rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbus va takliflar Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy manfaatlarini aks ettiradi. O'zaro hamkorlikdagi sa'y-harakatlarni birlashtirish mintaqaning xalqaro sheriklar uchun jozibadorligini yanada oshirishga ham xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida ta'kidlanganidek, "mintaqaviy iqtisodiy o'sish va investitsiya faolligi markazlaridan biriga aylanmoqda, G'arbni Sharq va Shimolni Janub bilan bog'laydigan transport xabi bo'lishdek tarixiy vazifani yana o'z zimmasiga olmoqda".

o'tmish va umumiy kelajak" xalqaro media platformasini yaratish taklifi meni juda quvontirdi. Bu — bir-birini o'zaro tushunish va mintaqaviy o'ziga xoslikni mustahkamlashga qaratilgan bilan juda katta ahamiyatga ega bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqil rivojlanish yillarida hal etilmagan chuqur va muddati o'tgan muammo hisoblanadi.

Umuman, O'zbekiston Prezidentining nutqi dasturiy mazmun-mohiyatga ega bo'lib, birinchi navbatda, mamlakatlarimizning kuchi, salohiyati va imkoniyatlarini faollashtirishga, mintaqaning tinch buniyodkorligi va farovonligiga qaratilgan va bunda siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va yoshlar masalalarida malakali mutaxassislariga umid bog'langani bilan e'tiborga molikdir.

Ko'rgazma



O'zbekiston ziyorat turizmi salohiyatining Kuala-Lumpurdagi namoyishi

Mamlakatimiz elchixonasi ko'magida Kuala-Lumpur shahridagi "Sunway Pyramid" anjumanlar markazida bo'lib o'tayotgan Osiyo ziyorat turizmi ko'rgazmasida O'zbekiston milliy stendi tashkil etildi.

Ko'rgazma Malayziyaning bir qator turizm assotsiatsiyalari tashabbusi bilan tashkil qilingan bo'lib unda Osiyo mintaqasining 50 ga yaqin mamlakatlari vakillari ishtirok etmoqda.

Tadbir doirasida O'zbekistonning turizm salohiyatiga bag'ishlangan taqdimotlar o'tkazildi.



Unda qatnashchilarga respublikada turli jabhalarda olib borilayotgan keng ko'lami islohotlar, ziyorat turizmini jadal rivojlantirish va ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot berildi.

O'zbekistonning tarixiy va zamonaviy sayyohlik markazlari, boy madaniyati, betakror arxitekturasini va san'ati, milliy an'analarini aks ettiruvchi videoroliklar namoyish qilindi.

Milliy stendda O'zbekistonning tarixiy-madaniy turizmi, gastronomik turizm, "Umra+", qishki turizm kabi sayyohlik dasturlari keng targ'ib qilindi.

Ushbu ko'rgazmada respublika "Hunarmand" uyushmasi a'zolari ham faol qatnashdi. Ular ishtirokida milliy o'zbek hunarmandchilik va amaliy san'ati mahsulotlari ko'rgazma-savdosini tashkil etildi.

"Dunyo" AA. Kuala-Lumpur

YANGI MUVAFFAQIYATLARGA ZAMIN

Davlatimiz rahbarining shu yil 11-sentabr kuni qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni olib borilayotgan islohotlarimizning ko'lamini yanada kengaytirish barobarida, yangidan-yangi tashabbuslarga turtki bo'ladi, desak, ayni haqiqat. Zero, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi bir necha muhim yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Fikr

Ayniqsa, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, odil sudlovga erishish, iqtisodiyotning asosiy drayveri bo'lgan tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, ijtimoiy sohada islohotlarni "Inson manfaatini eng ulug' maqsad" tamoyili asosida yuzaga chiqarish kabi masalalar ustuvor etib belgilanmoqda.

Strategiyaning joriy yilning o'zidayoq amalga oshirilishi islohotlar sur'atini yanada tezlashtirishga xizmat qiladi. Xususan, strategiyaning qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvinu tashkil etish yo'nalishi doirasida hamda davlat xizmatlarini ko'rsatishda aholiga yanada qulayliklar yaratish va ortiqcha samsalorliklarga barham berish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab yo'l harakati xavfsizligi sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatishda, jumladan, avtomototransport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda uning oldi-soldi shartnomalari va boshqa notarial tasdiqlangan bitimlarni "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimidan olish amaliyoti yo'lga qo'yiladi va ariza beruvchilardan mazkur hujjatlarni talab qilish taqilganadi.

2024-yil 1-martdan e'tiboran esa notarial idoraga kelmasdan, shu jumladan, chet eldan turib mol-mulkdan foydalanish bilan bog'liq bitimlarni (mulk huquqini boshqa shaxsaga o'tkazishdan tashqari) elektron raqamli imzodan foydalanilgan holda videokonferensaloqqa orqali rasmiylashtirish tartibi yo'lga qo'yiladi.

Qolaversa, 2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha shahar va tumanlarda "Mahalla byudjeti" tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishi mahalla institutini yanada takomillashtiradi. Bunda tuman va shahar byudjetlariga tushadigan soliq tushumlarining bir qismi mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish jamg'armalari yo'naltiriladi.

Tashabbusli byudjet amaliyotini va mahallalarning moliyaviy mustaqilligini yanada kengaytirish maqsadida 2024-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun Davlat byudjetidan 10 trln. so'm ajratilib, shundan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari uchun kamida 4 trln. so'm yo'naltiriladi.

Albatta, mazkur ezu ishlar jarayonida parlament a'zolarining bevosita vazifasi, birinchi navbatda, rejalashtirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda joylarga chiqqan holda mahalliy Kengash deputatlari bilan birgalikda mazkur tadbirlarning bajarilishini tahlildan o'tkazish va monitoringini tizimli olib borish hisoblanadi. Ayni mas'uliyatli vazifani bekam-u ko'st ado etishimizga ishonaman.

Narimon UMAROV,
Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi.

Aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash, unga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondirish, tabiiy gaz kirib bormagan joylarda iste'molchilarga suyuqlantirilgan gaz yetkazib berish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq shunga qaramay, aholi orasida qishda tabiiy gaz ta'minotidagi ayrim masalalar hamon hal bo'lmaganiga oid turli fikrlar mavjudki, bu haqda batafsil to'xtalib o'tish joiz.

ELEKTR ENERGIYASI VA TABIIY GAZ

NARXINI BOZOR MEKANIZMLARI ORQALI BELGILASH VAQTI KELDI

Ushbu holatga salbiy munosabat bildirish, gaz qazib chiqarish, taqsimlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarni tanqid qilishdan yiroqmi, albatta. Zero, masalaga bir yoqlama, shunchaki yuzaki yondashish yaramaydi.

So'nggi yillarda davlatimiz, hukumatimiz tomonidan iste'molchilarni yonilg'i bilan uzluksiz ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilayotgani diqqatga molik. "Zangori olov"ning katta hajmlarda import qilinishi gaz qazib olish sohasidagi muammolarni atroflicha o'rganib chiqish va zudlik bilan hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. Tizimni modernizatsiyalash, ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, sohada malakali mutaxassislarini ko'paytirish shular jumlasidan.

Albatta, gaz bitmas-tuganmas boylik emas. Mutaxassislar yurtimizdagi "zangori olov" zaxiralari 20 — 30 yildan so'ng tugashini aytmog'da. Shu bois muqobil energiya manbalarini ishga solishga ko'proq e'tibor qaratish, bu yo'nalishdagi jarayonlarni jadallashtirish taqozo etilyapti.

Shu jihatdan, tabiiy gazni qayta ishlab, mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha bir qator loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Ularning moliyalashtirilishi, hayotga tatbiq qilinishi, shaffof, ochiq-oydin kechishi ustidan deputatlik va jamoatchilik nazorati imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim.

Bundan tashqari, 2024-yil yakuniga qadar qonunda belgilangan asoslarda tezkor-qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish masalasini alohida tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqish tartibi joriy etiladi. Tadbirkorlik sohasida javobgarlikni yanada liberallashtirish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab birinchi marta jinoyat sodir qilgan shaxsni, agar u sud maslahatxonaga kirgunguna qadar soliqlar va yig'imlar, shu jumladan, penyalari va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararining o'rmini to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod etish, tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'zg'atilgan har bir jinoyat ishi bo'yicha tergov hamda sud jarayonida tegishli mansabdor shaxs jinoyat ishi materiallarini ish yurituviga qabul qilgan vaqtdan boshlab tadbirkor himoyasiga Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi, shuningdek, tadbirkorlik subyekti a'zo hisoblangan boshqa tashkilotni jamoat himoyachisi sifatida jalb etish (xabar qilish) tartibi yo'lga qo'yiladi.

Yana bir gap. "O'zbekiston — 2030" strategiyasining qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvinu tashkil etish yo'nalishi bo'yicha 2023-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasini, 2023-2024-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar hamda 2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlarni loyihalari ro'yxati tasdiqlanadi.

E'tiborlisi, Farmonda bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhlarini bilan to'liq qamrab olish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlash, olis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo'lga qo'yish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash, 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish, yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1 mingta multimedia dasturlarini yaratish, ta'lim tashkilotlariga har yili "til egalari" bo'lgan 500 nafar xorijiy mutaxassisni jalb qilish singari vazifalar alohida qayd etilgan.

Narimon UMAROV,

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi.

KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORGARLIK HOLATI KO'RIB CHIQILDI

Kecha xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashining navbatdagi sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda deputatlar tomonidan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, aholi va ijtimoiy soha obyektlarini "yashil" energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash masalalari yuzasidan Buxoro shahar hokimi J. Nosirovning, shuningdek, hokimning birinchi o'rinbosari X. Yahyoyevning axborotlari eshitildi.

Sessiya

Shahar hokimi deputatlarga kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish ishlari, xususan, muhandislik-kommunikatsiya tizimlari barqaror ishlashini ta'minlash, aholi va iqtisodiyot tarmoqlariga elektr energiyasi, tabiiy va suyuqlantirilgan gaz, issiqlik ta'minoti hamda ichimlik va issiq suv resurslarini yetkazish bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida axborot berdi.

Unda ta'kidlanganidek, aholiga elektr energiyasini uzluksiz yetkazib berish maqsadida 185,7 km. elektr uzatish tarmoqlari, 91 ta transformator punkti mukammal, 282,5 km. elektr uzatish tarmoqlari hamda 12 ta transformator punkti joriy ta'mirlangan.

Shuningdek, iste'molchilarni mavsum davomida uzluksiz tabiiy gaz bilan ta'minlash maqsadida uchta gaz taqsimlash tashkilotini qayta tashkil etish, 700 tasi esa joriy ta'mirlangan, 3,2 km. gaz tarmoqlari rekonstruksiya qilingan.

Bundan tashqari, ichimlik

suvi ta'minoti tarmoqlarining barqaror ishlashi uchun 0,6 km. ichimlik suvi tarmoqlari, 1 ta nasos uskunasini mukammal, 11,1 km. ichimlik suvi tarmoqlari, uchta nasos uskunasini joriy ta'mirlangan.

Sessiyada deputatlarning savollariga shahar hokimi, mutasaddi idoralar rahbarlari javob berdi. Deputatlar ular e'tiborini ijtimoiy soha obyektlari va boshqa toifadagi iste'molchilarga zarur miqdorlarda energetika resurslarini yetkazib berish bo'yicha muntazam ravishda mahallabay tizimida o'rganishlar olib borish lozimligiga qararadi.

Shundan so'ng, aholi va ijtimoiy soha obyektlarini "yashil" energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash masalasi atroflicha muhokama qilindi. Deputatlar ushbu masalaning dolzarbligidan kelib chiqib, uni yana bir bor chuqur o'rganish hamda yanada takomillashtirish taklifini bildirdi. Shundan kelib chiqib, mazkur masala keyingi sessiya yig'ilishida ko'rib chiqiladigan bo'ldi.

Qizg'in ruhda kechgan yig'ilishda deputatlar

mahalliy Kengashlar faoliyati samaradorligini oshirish, xususan, deputat so'roviga yuborilgan javoblarni muhokama qilish, fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlar bilan ishlash holatiga doir masalani sessiyada ko'rish, partiya guruhlari, doimiy komissiyalar tashabbuskorligini oshirish, sessiya kun tartibidan o'rinda davlat masalalar haqida avvaldan keng jamoatchilikni xabardor etish, shuningdek, ko'rib chiqilgan masalalarni aholiga yetkazish takliflarini ilgari surdi.

Sessiyada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov davlatimiz rahbarining Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi hamda "O'zbekiston — 2030"

strategiyasini 2023-yilda sifati va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorning ahamiyati, mazmun-mohiyati, unda belgilangan ustuvor vazifalarga to'xtalib o'tdi.

Spiker ta'kidlanganidek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi nafaqat mamlakatimizning kelgusi yetti yillik taraqqiyotini, shu bilan birga, uning uzoq yillik rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi muhim hujjat hisoblanib, davlat va jamiyatning har tomonlama hamda jadal rivojlanishida, yurtimizni modernizatsiya qilish va hayotning barcha sohasini liberallashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, sessiyada Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, O'zLiDeP fraksiyasi

rahbari A. Haitov so'zga chiqib, fraksiya bilan partiya guruhi o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish, partiya guruhlarini ishini jonlantirish masalalariga alohida to'xtaldi. Fraksiya yig'ilishlariga partiya deputatlik guruhi a'zolarini taklif qilish, mahalliy Kengashlar deputatlari bilan faol aloqa o'rnatish, videokonferensiyalar shaklidagi tadbirlarda ularning ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyatga ega bo'lib xizmat qiladi.

Sessiyada deputatlar tomonidan kun tartibidagi masalalar yuzasidan ko'plab savollar berildi va tegishli javoblar olindi.

Muhokama etilgan masalalar yuzasidan xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashining qarorlari qabul qilindi.

Bahodir MA'MUROV,
xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashi deputati:

— Sessiya ishi har tomonlama samarali va foydali bo'ldi, desak, mubolag'a emas. Sababi, kun tartibidagi masalalar yuzasidan nafaqat mas'ullarning hisobotlarini, balki ayni vaqtda viloyatimizda bo'lib turgan Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlaridan iborat ishchi guruhning o'rganish natijalarini, umuman, har bir masalani atroflicha muhokama qilib, ustuvor vazifalarni belgilab oldik.

Shundan kelib chiqib, biz, deputatlar ham o'zimiz saylangan okrugda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini doimiy nazorat qilib boramiz. O'ylaymanki, ustuvor vazifalar ijrosi kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazishga xizmat qiladi.

Abdurauof AHMEDOV,
xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashi deputati:

— Yig'ilishda Qonunchilik palatasi deputatlari bilan partiya deputatlik guruhi a'zolari o'rtasida hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan bir qator muhim takliflar berildi. Albatta, biz bundan juda manfaatdormiz. Chunki faoliyatimizni samarali tashkil qilish, saylovchilarni o'yantirayotgan masalalarga birgalikda, hamjihatlikda yechim topishda o'zaro aloqalar, fikr almashish muhim ahamiyatga ega.

Belgilangan mazkur chora-tadbirlar mahalliy Kengashlar faoliyatini samaradorligini yanada oshiradi.

"Xalq so'zi".

AHOLINI ASOSIY TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASH — DOLZARB MASALA

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholining arzon va sifatlil mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Senator va hayot

Xususan, ozuqabop mahsulotlar yetishtirish, agrar sohada aholining bandligini ta'minlash maqsadida 200 ming gektar yer ajratilgan hamda 500 ming gektar qo'shimcha yerlar foydalanishga berilganligi ichki bozorda narx-navoni barqaror saqlashga xizmat qilyapti.

Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi B. Tojiyev boshchiligidagi ishchi guruh Navoiy viloyatida aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash hamda yaylovlar degradatsiyasining oldini olish va chorvachilikda ozuqa bazasini yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rganmoqda.

Ishchi guruh Navbahor tumanidagi bir qator fermer xo'jaliklarida bo'ldi. Xususan, "NEW AGRO SYSTEM" fermer xo'jaligi ekin dalalari ko'zdan kechirildi. Fermer xo'jaligi umumiy yer maydoni 232 gektar, shundan 132 gektari paxta, 100 gektari g'alla. 2022-yilda 18 gektar paxta maydoniga tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilingan.

Bundan tashqari, paxta va g'alla dalalari atrofiga oshqovoq, loviya, sholg'om va tut ko'chatlari ekilgan, uzumchilikni yo'lga qo'yish maqsadida shpallerlar o'rnatilgan. G'alladan bo'shagan 80 gektar maydonga hozirda 70 foiz moydorlik xususiyatiga ega Ispaniyadan

keltilirgan kungaboqar yetishtirilmoqda.

Shundan so'ng ishchi guruh "Arabxona" MFY hududida joylashgan "Safo sevd" fermer xo'jaligida bo'lib, yer egalaringni muammolari va takliflarini o'rgandi. Har bir ko'tarilgan masala yuzasidan aniq choralar ko'rilishi belgilab olindi.

Ishchi guruh tomonidan ichki bozorni arzon va sifatlil mahsulotlar bilan to'ldirish, xo'jaliklarning eksport salohiyatini yaxshilash, umuman, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kerakli tavsiyalar berildi.

"Navkar" MFYda bo'lib o'tgan muloqotda ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tomoqrolarga yetishtirishni keng targ'ib etish, faol tomoqchilarni rag'batlantirish, yerdan samarali foydalanish istagi borlarga imkon berish va shu orqali qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy turmushini yanada yaxshilashga hissa qo'shish lozimligi ta'kidlandi.

Ishchi guruh o'rganishi davom etmoqda.

"Xalq so'zi".

Mushohada

Keyingi yillarda O'zbekistonning iqtisodiy o'sish dinamikasi barqarorlashdi. Ushbu tendensiya aholi turmush darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Boshqa tomondan,

bu ikki omil elektr energiyasi iste'molining muttasil ravishda ortishiga sabab bo'lyapti.

Energetika:

SEKTORNI DOIMIY SUBSIDIALAB RIVOJLANTIRIB BO'LMAYDI

Iqtisodiyot rivoji, jamiyat taraqqiyoti bevosita energetika bilan chambarchas bog'liq ekan, mazkur sohaga katta e'tibor qaratgan davlat borki, jadal taraqqiyotga erishgan.

Narx shakllanishining bozor mexanizmlari yo'qligi tufayli davlat energetika sohasini subsidiyalashga majbur bo'lyapti. Bir kilovatt-soat elektr energiyasining tannaxi — 970 so'm. Demak, bir oyda o'rtacha 200 kVt-soat elektr energiyasi iste'mol qilinganda ham, davlat amalda har bitta iste'molchi uchun 135 ming so'mdan subsidiya bermoqda. Mamlakatdagi iste'molchilar soni esa 7,4 mln. xonadonni tashkil etadi.

Xuddi shunday, 1 kubometr gaz tannaxi 1890 so'm bo'lsa, isitish mavsumida 750 kubometr gaz yuqadigan bitta oila o'rtacha 1 mln. 132 ming so'm subsidiya olmoqda. Ayni paytda mamlakatimizdagi gaz iste'molchilarning jami soni 4,1 mln. xonadonni tashkil qiladi.

Bugun aholiga elektr energiyasi va tabiiy gaz iste'moli uchun o'rtacha 14 trln. so'mdan ortiq subsidiyalarni ajratilmoqda. Bu — bir yilda o'rtacha 1,15 mlrd. AQSH dollari aholi ehtiyojini subsidiyalash uchun sarflanyapti, degani.

Sohaning zarar bilan ishlayotgani hisobiga uni Davlat byudjetidan subsidiyalash kamomadga olib kelmoqda. Bu esa ijtimoiy sohaga ko'proq mablag' yo'naltirishga imkon bermayapti. Natijada aslida tizimni yangilashga yo'naltirish mumkin bo'lgan mablag'lar faqatgina paydo bo'lgan ushbu tafovutni qoplashga sarflanmoqda.

Umuman, davlatimiz energiya resurslarini aholiga o'z tannaxidan ham arzonroq darajada yetkazib berish uchun trillionlab subsidiyalar ajratadi va bu bilan dunyo miqyosida energetikaga eng ko'p subsidiya ajratadigan mamlakatlar qatorida turadi. Sun'iy ushlab tutilgan past narxlar esa sohaga xususiy investitsiyalar kirib

kelishiga to'sqinlik qiladi. Demak, narxlarni to'liq subsidiyalash o'rninga sohaga bozor tamoyillarini joriy etish, iste'mol qilingan energiya uchun bozor talablaridan kelib chiqib haq to'lanishi muhimdir.

Agar sohaga bozor qonunlari joriy etilsa, ertaga bu mablag'lar tejajladi. Natijada tejalgan mablag'ni ijtimoiy sohani rivojlantirishga, yangi maktablar, tibbiyot muassasalarini qurishga, har bir sohada ishlab chiqarishni taraqqiy ettirish uchun zamonaviy texnologiyalarni olib kirishga, qolaversa, energetika tizimini chuqur modernizatsiya qilishga sarflash mumkin.

Sirasini aytganda, bugungi kunda yurtimiz energetika sektorini isloh etish jarayonida xalqaro moliya institutlari islohotlarni rejalashtirish va amalga oshirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va obro'li xalqaro ekspertlarni jalb qilish ishlariga salmoqli hissa qo'shmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Unga ko'ra, iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojini uchun yetkazib beriladigan elektr energiya miqdori 120 mlrd. kVt.ga yetkaziladi. Barcha turdagi energiya resurslari hisobini yuritish to'liq raqamlashtiriladi. Bu, o'z navbatida, ayni chog'da yuzaga kelayotgan mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga zamin yaratadi.

Xulosa shuki, yashash uchun zarur bo'lgan boshqa tovarlar singari energiya borasida ham bozor qoidalari bilan yashash iste'molchilik madaniyatini, ortiqcha isrof qilmaslikni, xarajatlarni mustaqil nazorat etish va oqilona taqsimlash kabi hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga turtki bo'ladi.

Anvarxon TEMIROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Seminar

MABLAG'LAR MAQSADLI SARFLANYAPTIMI?

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan seminarida oilaviy bolalar uylari faoliyati hamda "Mehr daftari" jamg'armasi mablag'larining maqsadli sarflanishi yuzasidan deputatlik nazoratini o'rnatish masalalari muhokama qilindi.

Maqsad mahalliy Kengashlar deputatlarining oilaviy bolalar uylari faoliyatida hamda "Mehr daftari" jamg'armasi mablag'larining maqsadli sarflanishida faol deputatlik nazoratini olib borish, ijtimoiy himoyaga muhtoj yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlashda xalq vakillarining tutgan o'rni oshirishdan iborat.

Senatorlar, mahalliy Kengashlar deputatlari, manfaatdor vazirlik hamda idoralar mas'ullari, Yoshlar parlamenti a'zolari va ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashgan tadbirda ta'kidlanganidek, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yetim hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda.

Jumladan, olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida 23 ta mehribonlik hamda bolalar uylarining faoliyati tugatildi, shundan 14 tasi Mehribonlik uyi, 4 tasi bolalar shaharchasi va 5 tasi bolalar uyi hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda 2 ta Mehribonlik uyi 255, 3 ta "SOS — O'zbekiston bolalar mahallalari"da 164, 8 ta bolalar (go'daklar) uyida 340, 137 ta oilaviy bolalar uyida 739 nafar o'qil-qizlar tarbiyalanmoqda.

Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning muammolarini o'rganish hamda hal etish, ularning orzu-istaklarini ro'yog'ga chiqarishga ko'maklashish maqsadida "Mehr daftari" tizimi amaliyotga joriy etildi. Mazkur platforma ishga tushirilib, bugungi kunda unga 8 921 nafar (4 610 nafari o'g'il va 4 311 nafari qiz) bola kiritilgan, 4 452 bolaning muammolari o'rganilib, 3 171 nafar bolaning masalasi ijobiy hal etildi. Uy-joyga muhtoj yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 406 bolaning 388 nafariga uy-joylar berilgan.

Seminar davomida deputatlarga tegishli tavsiyalar, xususan, "Mehr daftari" jamg'armasiga tegishli mablag'larning o'z vaqtida tushirilishini nazorat qilib borish va bu boradagi muammolari ro'yog'ga chiqarishga ko'maklashish maqsadida mahalliy Kengashlar muhokamasiga olib chiqish, oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotganlar holidan xabar olish, talab va istaklarini eshitish, ularni uy-joy bilan ta'minlashda shaffoflikka erishish bo'yicha tavsiyalar berildi.

"Xalq so'zi".

17-sentabr — Abdulla Qahhor tavallud topgan kun



ULUG' ADIBNING ZIYO CHASHMASI

Serqirra ijodkor, mashhur hikoyanavis, jamoat arbobi Abdulla Qahhor adabiyotimizning yuksak chinori edi. Atoqli yozuvchi inson ruhiyatining muhandisi, qalbnig nozik tortlarini cherta oladigan so'z zargari darajasiga ko'tarila olgan. Sermazmun asarlari orqali o'z nomini ezgulikka, abadiylikka muhrlagan.

Ardoqli adibimizning o'lmas merosini qadrlash, anglash biz, yoshlar uchun ham qarz, ham farz. Shu ma'noda, zabardast yozuvchimizning hayot va ijod yo'li bilan yaqindan tanishish maqsadida Abdulla Qahhor uy-muzeyida bo'lib, ma'naviyat sarchashmasidan bahra olish.

Uzoq yillar davomida adib umr yo'lidagi Kibriyo Qahhorova bilan birgalikda ushbu xonadonda yashagan. Uy-muzeyda adib asarlari qo'lyozmalari, foydalanigan jihoz va buyumlar, mutolaa qilgan kitoblar jamlangan. Ekspozitsiya qatorida musiqiy cholg'u asboblarning ham joy olgan yozuvchining nafaqat adabiyotga daxldor shaxs, balki san'atsevar inson bo'lganini ham anglatadi.

Ushbu ekspozitsiya Abdulla Qahhorning naqadar bag'rikeng, mehmondo'st shaxs, inson ruhiyatini bilimdoni bo'lgani ifodasidir. Chunki aylana shakli — tenglik belgisi. Unga tashrif buyurgan mehmonlar aynan mana shu aylana stolga taklif qilingan. Bu ularga hurmat ramzi hisoblangan. Abdulla Qahhor hayotida har narsaning mayda detaligacha ahamiyat qaratgani uning naqadar ziyork, samimiy va otashin qalb sohibi bo'lganidan dalolat beradi.

Abdulla Qahhor uy-muzeyi o'quvchi va talabalar, yosh tadqiqotchilar bilan doim gavjum. Ular bu yerda saqlanayotgan ilmiy meros bilan tanishibgina qolmay, ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar olib bormoqda. — Faoliyatim davomida ko'plab



Uy-muzeydagi badiiy asarlar, suratlar, adibning qalamkash do'stlariga yozgan maktublari o'sha davrdagi ijodiy muhit haqida yaqqol tasavvur uyg'otadi. XX asr badiiyat olami manzaralari, yutuq va muammolari xayolingizda jonlanadi.

Abdulla Qahhor shunday degan edi: "Xonadonda chiroq bo'lmasligi mumkin. Lekin kitob bo'lmasa, bu go'shaning kunduzlari ham zimistondir". Xonadondagi osori-atiqalardan ayon bo'ladiki, adib xonadonini kitob, ilm-ma'rifat, ma'naviyat nurlari yoritgan. Bu yerdagi mo'jaz kutubxona so'zimizga isbot. Uning fondida o'zbek va jahon adabiyotining noyob namunalari, mumtoz, bebaho asarlar joy olgan. Tasavvur qilamizki, bo'y shiftga qadar yetgan, chor-atrofi kitoblar bilan o'ralgan xonadonda adib ijod zavqini totgan. Mazkur kitoblardan olingan ilm uning qalamini chaxrlagan.

...Qo'lda fotoapparat ushlab turgan Abdulla Qahhor tasviri aks etgan surat diqqatimizni tortadi. Uy-muzeydagi ko'plab fotoasarlarni yozuvchining o'zi tasvirga olganidan anglashiladiki, yozuvchi borliqqa, hayotga, inson taqdiriga doim ijodkorona nazar bilan qaragan. U hamisha ilhom og'ushida yashagan. Har narsadan go'zallik, nafosat axtargan. O'zi yoqtirgan noyob manzaralarni tasvirga olishni yaxshi ko'rgan, qayerga borishdan qat'i nazar, doim yonida fotoapparat olib yurgan.

— Muzeining hozirgi ko'rinishda qad rostlashda Kibriyo opaning sa'y-harakatlari nihoyatda katta o'rin tutgan, — deydi uy-muzey direktori Sanobar Matlubova. — Ya'ni 1987-yil 6-may kuni adibimizning 80 yillik yubiley marosimida Kibriyo Qahhorova tashabbusi bilan ushbu ziyoski maskaniga asos solindi. Bu fidoyi inson 1996-yilga qadar muzeyda ilmiy-xodim sifatida faoliyat yuritgan. Besh mingdan ziyod buyumlarini, nodir asarlarni Kibriyo opa shu qadar asrab-avaylaganki, ko'rganingizdek, bugungi kunga kelib, ekspozitsiyalar unchalik darajada ta'mirga muhtoj emas. Ular hozir ham o'z tarovatini yo'qotmagan.

Muzej ikki qismga bo'linadi: ijodxon va mehmonxon. U yerga tashrif buyurgan kishi go'yo o'zini o'tmishga tushib qolgandek sezadi. Ekspozitsiya orasida mehmonxonadan o'rin olgan shakli dumaloq aylana stol e'tiborni tortadi. Adib uni shogirdlaridan biriga buyurtma qilib yasatirgan.

xorijiy mamlakatlarda bo'lib, atqoli ijodkorlar uy-muzeylarini ko'zdan kechirganman, — suhbatni davom ettiradi Sanobar Matlubova. — Ularning aksariyatida menda unutilmas taassurot uyg'otgan. Biroq bu ziyoski maskanlarini o'zimizning muzeylar bilan taqqoslab ko'rganda, shonli o'tmishimiz borligidan faxr hissini tutganman. Safar chog'ida diqqatimni tortgan yana bir jihat: xorijiy muzeylarda tomoshabinlar uchun yaratilgan qulay sharoitlar. Ammo, aytish joizki, ularning aksariyatida chipta narxi qimmat. Mamlakatimizda esa muzeylarga yoshlarni keng jalb qilish maqsadida bepul sayohat-ekskursiyalar uyushtiriladi. Bunday yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan holda biz ham muzeyni rivojlantirishga yangicha yondashmoqdamiz. Faoliyatimizga innovatsion texnologiyalar joriy etilmog'ida.

2020-yilda Toshkent oliy ta'lim instituti bilan Abdulla Qahhor uy-muzeyi o'rtasida memorandum imzolandi. Oliyog'ida muzey filialni ochildishga ensihda. Birgalikda qator ma'rifiy tadbirlar, adabiy kechalar hayotga, inson taqdiriga doim ijodkorona nazar bilan qaragan. U hamisha ilhom og'ushida yashagan. Har narsadan go'zallik, nafosat axtargan. O'zi yoqtirgan noyob manzaralarni tasvirga olishni yaxshi ko'rgan, qayerga borishdan qat'i nazar, doim yonida fotoapparat olib yurgan.

Bugun, tan olishimiz kerak, ba'zi yoshlarimizning adabiyot, san'at, so'z qadri haqidagi bilimlari, duyqoqarashi biroz sayoz. Ularni yuksaltirishda atqoli ijodkorlar qalamidan to'kilgan dur-u gavharlar bilan birga, ular qoldirgan meros haqida yorqin tasavvur beruvchi uy-muzeylar muhim ahamiyat kasb etadi. Abdulla Qahhor uy-muzeyi ham navqiron avlodning ulug' ajdodimiz hayoti, quvonch va tashvishlari, qadriyatlarini, dard-u armonlarini anglashga, adabiyotga qiziqishni oshirishga xizmat qiladi, deb ishonamiz.

Munira RAHIMOVA, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi.

Finlyandiya tajribasi:

PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHGA ILMYI YONDASHUV

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi davrida ta'lim, ilm-fan sohaslarini yanada rivojlantirishga barcha yangilanishlarning, yuksalishning asosiy poydevori sifatida qaralmog'ida. Ushbu jabhani jahon talablari asosida ravnaq toptirish yo'lida o'nlab huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingani, Prezidentimiz rahbarligida qator yig'ilishlar, uchrashuvlar muntazam o'tkazilayotgani so'zimizning isboti.

Hamkorlik

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori soha taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Uning ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligiga erishishda muhim o'rin tutmog'ida.



o'tilgan, — deydi Juhani Rautopuro. — Yillar davomida tenglik, kompetensiya, mutaxassisga ishonch kabi fin ta'lim tizimining asosiy tamoyillari shakllantirildi va bugun dunyo bo'ylab ularning naqadar samarali ekanligi e'tirof etilmog'ida.

Pedagogika, psixologiya fakultetining xalqaro eksperti Elisa Heimovaarning ma'ruzasi Finlyandiya ta'lim tizimidagi islohotlar haqida bo'ldi. Elisa xonim ma'ruza darsida o'qituvchi ta'limi va kvalifikatsiyasi, ta'limdagi boshqaruv islohotlari hamda qo'llab-quvvatlash mexanizmi, shuningdek, butun fin ta'lim tizimi haqida ma'lumotlarni taqdim qildi.

Malaka oshirish jarayoni Xelsinki, Yuvaskula, Kareliya, JAMK amaliy fanlar va pedagogika instituti bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan stajirovka dasturi asosida olib borildi. Unda Finlyandiya ta'lim tizimida o'quv maqsadlari, pedagogik jarayonni tashkil etish mexanizmlari, ta'limda baholash, o'quv me'yoriy hujjatlar, standartlar, malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari, kredit-modul tizimi va mustaqil ta'lim, raqamlashtirish, o'qitish metodikasi va interfaol metodlarni qo'llash kabi dolzarb mavzularda yuzasidan bilim, tajriba oshirildi.

O'qituvchilik kasbi nufuzli kasb bo'lganligi sabab bu yurtda professor-o'qituvchilarning ta'limi va malaka oshirishiga katta e'tibor qaratilgan. Maktabgacha, maktab va oliy ta'limdagi islohotlar asoschisi o'qituvchilar hisoblanadi. Ular mavjud Milliy dasturni boyitish, qo'shimchalar kiritish yoki tubdan o'zgartirish huquqiga ega.

Yuvaskula universiteti faoliyati, bu yerda professor-o'qituvchi va talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdik. Dunyoning "top-500" taligiga kirgan universitetda pedagog kadrlar tayyorlanadi va malakasi oshiriladi. Oliyog'ida ta'lim va psixologiya, ijtimoiy fanlar, axborot texnologiyalari, matematika, sport va sog'lomlashtirish fanlari, biznes hamda iqtisodiyot kabi 6 ta fakultet mavjud. Ishchi va fan dasturlari universitet professor-o'qituvchilari tomonidan mustaqil tuziladi. Pedagoglar mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega. Yangi yo'nalish yoki fakultet ochildish uchun Ta'lim vazirligiga murojaat etiladi.

Eng gavjum joy — kutubxona

Yuvaskula universiteti kutubxonasiga sayohatimiz ham g'oyat mazmunli bo'ldi. Bu yerda ziyoski maskani faoliyati va xodimlarining vazifalari haqida batafsil ma'lumot o'ldik. Kutubxonada 70 nafar xodim ishlaydi.

Foydalanuvchilarning ko'pligini ko'rib, eng gavjum joy aynan bilim va ma'rifat ulashuvchi ushbu maskan ekanligiga amin bo'lasiz. Dargohda ilmiy izlanish olib borish uchun hamma shart-sharoit mavjud. Elektron kutubxona,

kompyuterda ishlash zallari, shinam oshxona foydalanuvchilar uchun shay. Kutubxona qoshida ilmiy hamda ta'limiy xizmatlar markazlari mavjud. Ushbu markazlar ilmiy izlanuvchilarni o'ziga chorlaydi. Xususan, yosh tadqiqotchilarga maqolalar chop etish bilan bog'liq texnik xizmatlarni taklif qiladi.

Kutubxonada ochiqlik muhiti hukmron. Jumladan, bu yerda universitetda olib borilayotgan barcha ilmiy ishlar maxsus platformaga joylashtiriladi va undan foydalanish barcha uchun ochiq. Kutubxonadan foydalanmoqchi bo'lgan har bir kishi maxsus treningda qatnashishi lozim. Unda kutubxonaga a'zo bo'lish, ishlash, savolnomalar va yo'riqnomalar tuzishni o'rgatishadi.

Makelanmayen Koulu — boshlang'ich ta'lim maktabi

Makelanmayen Koulu — boshlang'ich ta'lim maktabi hisoblanib, bu yerga tashrif davomida mavjud sharoitlar, sport maydonchalari bilan tanishdik. Alohida taqdimotda maktab tuzilmasi, uning 8 ta filiali, ushbu bilim dargohlarining funksiyalari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Maktab shart-sharoitlari bilan tanishish jarayonida har bir o'g'il-qizga alohida e'tibor berilishiga, ayniqsa, maxsus ta'limga muhtoj bolalarning qolgan bolalarga qo'shilib o'qitilishi, ya'ni inklyuziv ta'limga kuchli e'tibor qaratilishiga guvoh bo'ldik. Bunday tartib imkoniyati cheklangan bolalarning kelajakda jamiyatda o'z o'rinlarini topib ketishi uchun zamin yaratadi.

Maktabga o'qituvchilarni ishga qabul qilishga jiddiy jarayon sifatida qaraladi. Dastlab o'qituvchilikka nomzodlar onlayn platforma orqali hujjatlarni topshiradi. Ma'muriyat hujjatlarini ko'rib chiqib, o'ziga kerakli xodimni tanlab oladi hamda subhatga taklif etadi. Ishga olingan o'qituvchi to'liq mustaqil ravishda ishchi dastur ustida bosh qotiradi va materiallarni o'zi tanlash huquqiga ega bo'ladi. E'tiborlisi, o'qituvchilar hamkorlikda ishlaydi, yakunda har biri ijodiy natijaga erishadi.

Tadbirkorlikka ixtisoslashtirilgan bilim maskani

Biz tanishgan Muurame maktabi tadbirkorlikka ixtisoslashtirilgan. Bitiruvchilarni real hayotga tayyorlash va ularda ishlab olinadigan qiziqish uyg'otish maqsadida ushbu pilot maktabi tashkil qilingan.

Maktab asoschilari — Yuvaskula shaharining tadbirkorlari. Bu yerda ishlab chiqarish korxonalarini bilan maktab orasida hamkorlik mavjud. Maktab bitiruvchilari qiziqarli loyihalar va tadbirkorlik tashabbuslari ustida ishlashadi.

Tashrif moyabandiyada maktab bitiruvchilari bilan subhat quridik. Uning ta'kidlashicha, maktab tomonidan nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlangani o'quvchi kelajagida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, unga bu integratsiya kelgusida qaysi universitetda o'qishi va qaysi kompaniyaga borib ishlashini oydinlashtirib olishiga ko'maklashgan.

Maktab direktori o'z taqdimotida o'qituvchi va tadbirkorlik maktabining farqli tomonlarini ochib berdi. Ulardan eng yaqqoli tadbirkorlik maktabida tarbiyalanayotgan o'quvchilar hamma narsani amaliyotda o'rganadi

hamda ma'suliyatni zimmasiga olish ko'nikmasiga ega. O'shlar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar mahalliy kompaniya yoki tadbirkorlar tomonidan moliyalashtiriladi.

Fakultet strategiyasi

Yuvaskula universiteti fakultetidan biri pedagoglar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan. Bu yerda bog'cha tarbiyachilari va maktab muallimlari kamolga yetadi. Finlyandiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishlash uchun bakalavr darajasi yetarli hisoblanadi. Maktabda sinf o'qituvchisi bo'lib ishlash uchun talabgor magistrlik darajasiga ega bo'lishi shart. Maktabda fan o'qituvchisi bo'lib ishlash uchun esa bir yil (60 kredit) qo'shimcha ta'lim olishi kerak. Bunda nafaqat yo'nalishi bo'yicha mutaxassis, balki yuqori malakali pedagog kadr bo'lib yetishishi ham talab etiladi.

Mamlakatda o'qituvchiga qo'yilgan talab nihoyatda yuqori. Shu bois universitetga nafaqat bir necha yil davomida, balki pensiyaga chiqqanicha o'z bilim va ko'nikmalarini yo'qotmaydigan, ijodiy fikrli, doimiy o'z ustida ishlaydigan pedagog kadrlarni tayyorlash vazifasi yuklangan. Shu bois fakultet jamoasi soha bo'yicha doimiy izlanishlar olib boradi va ishchi dasturlari tez-tez takomillashtiriladi.

Taqdimot jarayonida fakultet strategiyasi ham tanishtirildi. E'tiborlisi shuki, fakultet strategiyasi va ishchi dasturi Milliy dasturga asoslanib tuziladi. Finlyandiya ta'lim darajasining yuqoriligiga sabab abiturientlarni pedagoglikka qabul qilish jarayonining o'zida bir necha jiddiy saralash o'tkaziladi. Masalan, 2022-yil 1750 nafar abituriyentdan 89 nafar qabul qilingan. Talabalikka qabulda nafaqat bilim, balki insonning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari ham hisobga olinadi.

O'qituvchi magistraturani tugatgach, undan pedagog bo'lish huquqini olib tashlab bo'lmaydi. Shuning uchun qabul jarayoni mukammal yondashuv bilan amalga oshiriladi. Qisman SORA qonuniga asosan o'qituvchi ish jarayonida qo'pol xatolikka, qoidabuzarlikka yo'l qo'ysa, magistrlik diplomi bo'lgan taqdirda ham u pedagoglik qilish huquqidan mahrum etiladi. Finlyandiyaning qabul qilingan Milliy dastur bu shunchaki ko'rsatma, u rasmiy majburiyat yuklamaydi. Har bir o'qituvchi qaysi metodlardan foydalanishni o'zi tanlaydi. O'qituvchilar malakasini oshirish majburiy — bir yilda 3 kun.

Valteri ta'lim va konsalting markazi

Valteri — Finlyandiya milliy ta'lim agentligi qoshida faoliyat yurituvchi milliy ta'lim va konsalting markazi. Valteri mamlakat bo'ylab bolalar va yoshlarning o'qishi, maktabda tahsil olishi uchun har tomonlama yordam beradi. Ushbu markaz aqliy hamda jismoniy nuqsoni bo'lgan, ko'makka muhtoj har bir bola ehtiyojlariga, ayrim holdarda butun mehnat jamoasi, tuman yoki viloyat hokimiyatlari manfaatlariga xizmat qiladi.

Xullas, malaka oshirish kursidan ko'zlangan maqsad Finlyandiya ta'lim tizimi yutuqlarini o'rganib, mamlakatimiz ta'lim tizimiga tatbiq etish edi. Shu sababli tinglovchilar safar davomida olgan bilim va to'plagan tajribalarini o'z pedagogik amaliyotlariga muvaffaqiyatli qo'llashlari ko'zlangan natijalarni berishiga ishonamiz.

Ushbu markazning maqsadi imkon qadar nogironligi bo'lgan bolalar va yoshlarga o'z mahallasidagi maktabda ta'lim olish imkonini berishdir. Markaz xodimlari jismoniy imkoniyati cheklangan, ko'makka ehtiyojmand bolalarni ertaroq aniqlash va ularga turli soha vakillari bilan birgalikda yordam berishga harakat qilishadi. Finlyandiyaning turli qismlarida 5 ta Valteri maktabi faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, 3 ta Valteri ta'lim va konsalting (maslahatlashuv) markazi ham mavjud. Bugungi kunga qadar 250 nafar bolalar ushbu maktabda tahsil olgan.

Maxsus guruh mutaxassislari har bir nogironligi bo'lgan bolani chuqur o'rganishadi va ushbu maktabda tahsil olishi lozimligi to'g'risida qaror qabul qilinadi. Har bir ehtiyojmand bolaga maktab yoki markazga kelib o'qishidan oldin mahalliy davlat organi tomonidan maxsus vaucher (to'lov cheki) maktab ta'minlanadi. Finlyandiya hukumati ushbu xizmatlarni sotib olishda mahalliy davlat organlarini qo'llab-quvvatlaydi. 7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan ehtiyojmand bolalar ota-onalaridan biri bilan, 10 yoshdan oshgan bolalar esa o'zlar Valteri maktabida tahsil olib, yashashadi. Darslar dushanbadan jumaga qadar olib boriladi. Darsdan keyingi vaqtlarda bolalar qiziqishlariga qarab to'garaklarga qatnashishi mumkin.

Kareliya universiteti

Stajirovkaning ikkinchi haftasida Yoensuu shahrida joylashgan Kareliya amaliy fanlar universitetida bo'ldik. Bu yerda o'quv jarayonini tashkil etish, boshqarish yuzasidan ma'ruzalar tinglandi.

Oliyog'ida faoliyat bilan tanishuv jarayonida e'tiborimizni tortgan jihat — bu yerda ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash ishlab chiqarish hamda iqtisodiyotning kasbga bo'lgan talabi e'tiborga olingan holda tashkil etilgani bo'ldi. Xususan, bugungi kunda iqtisodiyotga zarur bo'lgan kasblar — xalqaro biznes, biotexnologiya, industrial menajment, axborot texnologiyalari, hamshirlik, o'monchilik va o'rmonni boshqarish, fizioterapiya, gerontologiya kabi mutaxassislar tayyorlanmog'ida.

Universitet ta'lim jarayoni uchun maxsus elektron platforma yaratilgan bo'lib, undan talaba va o'qituvchilar o'ziga kerakli ma'lumotlarni — dars jadvali, fanlar hamda darsga qatnashish vaqtlari haqida bilim olishi mumkin.

Safar davomida universitetning IT texnologiyalari va amaliy fanlar laboratoriyasida bo'lib, bu yerda yaratilgan sharoitlar hamda talabalarning amaliyot jarayoni, "fan — ta'lim — ishlab chiqarish" integratsiyasi natijasida korxonalar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdik.

Universitet tomonidan 500 dan ortiq korxonalar bilan hamkorlik shartnomalari imzolangan. Shu asosda talabalarning ishlab chiqarish tashkilotlarida malakaviy amaliyot o'tashi, shuningdek, amaliyotchi pedagoglar (korxonalardan jalb qilingan) tomonidan darslar olib borilishi kelgusida ularning korxonaga va tashkilotlarda mehnat faoliyatini olib borishiga zamin hozirlaydi.

Baxtiyor RASULOV,
Andijon davlat pedagogika instituti rektori,
tarix fanlari doktori, professor.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

ilmiy-tadqiqot muassasalari tasarrufidagi tayanch doktorantura va doktoranturaga 2024-yil uchun quyidagi ilmiy yo'nalishlar bo'yicha QABUL E'LON QILINADI:

fizika-matematika va texnika;
tabiyy fanlar;
ijtimoiy-gumanitar fanlar.

Qabulga tegishli barcha zarur ma'lumot va talablar bilan Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va markazlari hamda mintaqaviy bo'limlarida tanishish mumkin.

Hujjatlar 2023-yil 15-oktabrgacha qabul qilinadi.

Tayanch doktoranturaga kirish imtihonlari va doktorantura uchun suhbat 2023-yil 1 — 25-noyabr oralig'ida bo'lib o'tadi.

Tayanch doktoranturaga kiruvchilar mutaxassislik fanidan imtihon topshiradi.

Tayanch doktoranturaga kiruvchi nomzodlar quyidagi talablarga javob berishi lozim: oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomini yoki magistr

darajasi joriy etilguncha olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga ega bo'lish;

muayyan ilmiy natijalarga, shu jumladan, dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan, ilmiy jurnallar va nashrlarda chop etilgan kamida bitta ilmiy maqola va ilmiy-amaliy konferensiyalarda tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ikkita ma'ruza-tezisa ega bo'lish;

xorijiy tildan filologiya yo'nalishlari bo'yicha kamida "C1" darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat, nofilologik yo'nalishlar bo'yicha esa "B2" darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan, internetdan foydalana olish.

Doktoranturaga kiruvchi nomzodlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoxud ularga tenglashtirilgan xorijiy davlatlarda olingan ilmiy darajalar;

fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoxud ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar olingandan so'ng muhim ilmiy yutuqlarga erishish, shu jumladan, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezisa ega bo'lish;

xorijiy tildan filologiya yo'nalishlari bo'yicha kamida "S1" darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat, nofilologik yo'nalishlar bo'yicha esa "V2" darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lish.

Boshqa shaharlardan kelgan mutaxassislar yotoqxonaga bilan ta'minlanadi.

Qo'shimcha ma'lumot va qabul kvotalarini www.academy.uz saytidan olish mumkin. Ma'lumot uchun telefonlar: 71-233-59-46, 71-236-77-07.

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 941.33.088 nuxxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxonona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahriyrga kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxonaga telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Navbat Karimov ko'chasiga, 55-uy. Nabhatchi muharrir R. Sherqulov. Musahhah Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaga manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.05 Topshirildi — 00.15 1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi